



TEXNOLOGIYA DARSLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARNI MILLIY HUNARMANDCHILIK IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH

Xolmuratov Farid Shuhrat o'g'li
Ro'ziyeva Robiya Valisher qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti maktabgacha
va boshlang'ich ta'lim fakulteti 4-bosqich talabalari
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7794228>

ARTICLE INFO

Received: 23th March 2023
Accepted: 30th March 2023
Online: 31th March 2023

KEY WORDS

Texnologiya fani, xalq amaliy san'ati, milliy hunarmandchilik, kasb-hunar, tabiiy resurslar, ixtisosliklar, hunarmand, usta, milliy katalog, milliy urf-odat va an'analar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada texnologiya darslari jarayonida o'quvchilarga milliy hunarmandchiligimizning ijodkorligini, uning mohiyatini anglagan holda milliy kasb-hunarlarimizni o'rganish va o'rgatish g'oyalarini shakllantirish haqidagi fikr-mulohazalar bildirilgan.

Insoniyat yaralibdiki, o'zgarishlar, yangilanishlar va rivojlanishlararo jadal va tezkor rishda yashab, mehnat qilib yashab kelmoqda. Odamlar asrlar davomida kishilik jamiyatining eng qadimgi davrlaridan to hozirgi kungacha atrofimizni o'rab turgan borliq, tabiat, jamiyat, iqtisodiyot, sanoat, fan-ta'lim, tibbiyot, tarix va boshqa barcha sohalarda eng kichik va boshlang'ich tushunchalardan tortib, hali hanuz tadqiq etilmagan birmuncha murakkab, anglab bo'lmis narsa va tushunchalarning ibtidosi va intihosiga guvoh bo'lib, bilvosita yoki bevosita ushbu jarayon va hodisalarda qatnashib kelmoqdalar. Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichigacha ham insoniyat juda ulkan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Ko'pchilik hodisalar rivojlanishga yuz tutgan bo'lsa, ba'zilari dunyoga keliboz zavol topgan. Xuddi shuningdek, xalq, millat hunarmandchiligi odamlar hayotining nafaqat, ibtidoiy jamoa tuzumidan boshlangan eng qadimiy davrlarida, balki hozirgi kunda ham eng kerakli, eng dolzarb va muhim tarkibiy qismi hisoblangan. Xuddi shuningdek, milliy hunarmandchilik tarixini, uning xilma-xil turlarini va rivojlanish bosqichlarini o'rganishga bo'lgan ehtiyot ham ortib borgan. Chunonchi, hozir ham O'zbekiston Respublikasining barcha viloyat, tuman, shahar va qishloqlardagi har bir ta'lim muassasasida milliy hunarmandchiligimizning har xil turlarini amaliy va nazariy jihatdan o'qitish va o'rgatish asoslangan texnologiya fani va darslarining xarakteri va mazmuni ham kundankunga ortib bormoqda. Idrok qilib ko'radigan bo'lsak, haqiqatdan ham, odamlar yashar ekan o'zlarining tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qilishadi ya'ni ular yashash uchun o'zlari amalga oshira oladigan qo'llaridan keladigan barcha xatti-harakatlarni qilishadi:



Ishlashadi, o'qishadi, ovqatlanishadi va boshqa shu kabi jarayonlarni uzluksiz ravishda takrorlashadi. Texnologiya fani aynan odamlar eng oldingi davrlardan o'rganib, sayqallab kelgan va hozirda ham shu orqali kun kechirayotgan turli xil kasb-hunarlarini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganadi va o'rgatadi. O'z o'rnida texnologiya fani insonlarni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo'yadi. Ushbu dars jarayonlarini tashkil etishning asosiy maqsadi o'quvchilarning butun kuch va qobiliyatlarini hayotiy bilimlar va amaliy mashg'ulotlar orqali kengaytirish, ularni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va o'quvchilarda mehnat tushunchasini amaliy tajribalar bilan har tomonlama uyg'unlashtira olishga o'rgatishdan iboratdir. Bunda albatta turli amaliy mashg'ulotlar va nazariy bilimlar orqali dars jarayonlari tashkil etiladi. Shu o'rinda, aynan texnologiya darslarida o'quvchilarni milliy hunarmandchiligimizga qiziqtirish, xalq amaliy san'atining yuksak ijodkorligi bilan tanishtirish asosiy maqsad sifatida olinadi.

Hunarmandchilik bu — milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarishga asoslangan oddiy va murakkab mehnat qurollari yordamida yoki yakka tartibda, yoki jamoa tarzida qo'l mehnati mahsulotlarini tayyorlashga asoslangan sanoat turidir. Hunarmandchilik jamiyatlararo yirik sanoat ishlab chiqarish tarmoqlari vujudga kelgunga qadar keng tarqalgan va keyinchalik ham hunarmandchilikning ko'plab sohalari jamiyat hayotida saqlanib qolgan.

Aytish joizki, hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati orqali vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida bosqichma-bosqich ravishda eng qadimiy madaniy va iqtisodiy mashg'ulotlardan hisoblangan – dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi va turli ijtimoiy tarixiy davrlar mobaynida ilm-fan va texnika rivoji bilan aloqador holda takomillashdi. Vaqt o'tishi bilan hunarmandchilik turli ixtisosliklarga ajralib chiqdi. Jumladan: kulolchilik, duradgorlik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, temirchilik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukasozlik kabi kasb-hunarlarini milliy hunarmandchiligimizning eng qadimiy va bebaho turlari safiga kiritishimiz mumkin.

O'zbekistonning barcha hududlarida xalq san'atining o'ziga xos markazlari bo'lib, ular jahon madaniyatiga buyuk badiiy qadriyatlar bilan o'zining munosib hissasini qo'shgan. Bu qadriyatlar haqli ravishda xalq, san'atining ramzi bo'lib qoldi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg'ona vodiysi, Xorazm va Qoraqalpog'istonda yuzaga kelgan kulolchilik (sirkor va guldor sopol buyumlar), yog'och va ganch o'ymakorligi, naqshinkor bezak va kandakorlik, kashtachilik, gilamdo'zlik, sholchado'zlik va chitgarlik, zargarlik san'ati, charmga bezak tushirish san'ati, lokli miniatyura hamda kitob miniatyurasi hozir ham mavjud.

Hozirgi kunda ham o'zbek milliy hunarmandchiligiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, «Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 30.12.2021 yildagi PQ- 77- son qarori fikrimizning yorqin dalilidir. Unga ko'ra: « Milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida so'nggi besh yilda mamlakatimizdagi usta hunarmandlar soni 7 barobarga, shogirdlar 9 barobarga ko'payib, sohada band bo'lganlar soni 230 ming nafarga yetdi. Hunarmandlarning xalq amaliy san'ati milliy katalogi yaratilib, faxriy va xalqaro ko'rgazma hamda tanlovlarda g'olib bo'lgan 340 nafar ustalar ushbu katalogdan o'rin oldi. Shuningdek, 1,5 mingga yaqin hunarmandlar



turizm reyestriga kiritilib, ushbu soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda Milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar natijasida so'nggi besh yilda mamlakatimizdagi usta hunarmandlar soni 7 barobarga, shogirdlar 9 barobarga ko'payib, sohada band bo'lganlar soni 230 ming nafarga yetdi. Hunarmandlarning xalq amaliy san'ati milliy katalogi yaratilib, faxriy va xalqaro ko'rgazma hamda tanlovlarda g'olib bo'lgan 340 nafar ustalar ushbu katalogdan o'rin oldi. Shuningdek, 1,5 mingga yaqin hunarmandlar turizm reyestriga kiritilib, ushbu soha rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda».

Haqiqatdan ham, o'zbek milliy hunarmandchiligiga, amaliy va badiiy san'at turlari barcha davrlardagidek bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Shu o'rinda, yoshlarimiz ayniqsa, o'rta maktab o'quvchilarida milliylikimizni, milliy qadriyatlarimizni aks ettiruvchi xalq hunarmandchiligi turlarini targ'ib etish, yoshlarni turli milliy kasb va hunarlarimizni o'rganishga va o'z o'rnida, vaqti kelganda aynan ular milliy kasb-hunarlarimizni o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rgatishlari lozim. Zero, dono xalqimiz aytganidek: «Yoshlikda olingan bilim – toshga o'yilgan naqsh kabidir ». Ushbu yuksak maqsadni amalga oshirishda ta'lim sohasida texnologiya darslarining o'rni beqiyosdir. Chunonchi, aynan boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilari ushbu yoshlarida milliy hunarmandchiligimizning qaysidir sohasini chuqur o'rganishlari va albatta, kelajakda ushbu qadriyatlarimizni avlodlarimizga ham o'rgatishlari eng muhim ustuvor vazifalarimizdan biridir. Ushbu maqsadni amalga oshirishda muhim omil bo'layotgan texnologiya darslari shunday tashkil etilishi lozimki, maktabdagi har bir o'quvchi aynan, texnologiya darsiga kirishga shoshilishi, o'zi tayyorlab kelgan amaliy mehnati mahsulini o'zgacha tarzda taqdim etishga harakat qilmog'i lozim. Bunda albatta, yuqori ilmiy va amaliy malakaga ega o'qituvchiga va bevosita ta'lim oluvchi yoshlarga ham bog'liqdir. Har bir ta'lim muassasasi texnologiya fan o'qituvchilari milliy hunarlarning deyarli barchasidan xabardor bo'lishi, ulardan kamida uch to'rttasini mukammal tarzda bilmog'i va o'quvchilarga ham dars jarayonida ushbu hunarlarni o'rgatmog'i maqsadga muvofiqdir. Xususan, bir-biriga bog'liq bo'lgan duradgorlik, yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik hunarlarini puxta egallagan o'qituvchi bemalol o'z darsini qiziqarli, ko'rgazmali va amaliy tarzda o'ta olishi, o'quvchilarda ushbu kasblarga qiziqishni orttirish bilan birgalikda ularni o'rganishga ham turtki bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy an'analarimiz va qadriyatlarimizni o'zids mujassamlashtirgan o'zbek milliy hunarmandchiligining har bir turini nafaqat jamiyatimiz hayotida va aynan ta'lim tizimida o'rgatish va o'rganish biz uchun eng zarur ta'limiy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

References:

1. Tilavova M. Texnologiya va uni oqitish metodikasi [Matn] : oquv qo'llanma / M. Tilavova.- Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona, 2021. – 312 b. BK 74.263
2. <https://fayllar.org/2-mavzu-ozbek-milliy-xalq-xunarmandchiligi-turlari.html>
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Hunarmandchilik>
4. <https://lex.uz/acts/-4622088>